

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA NOAN'ANAVIY TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH.

Andijon Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

2-bosqich 04-guruh talabasi

No'manjonova Muattaroy Ikromjon qizi

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarini noan'anaviy usulda tashkil etish haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: noan'anaviy ta'lim, dars samaradorligi, bilim, ko'nikma, malaka

Аннотация: В данной статье изложено о проведении уроков родного языка и литературы нестандартными методами.

Ключевые слова: нестандартное обучение, эффективность урока, знания, навыки, умения

Annotation: This article discusses the organization of native language and literature lessons using non-traditional methods.

Keywords: non-traditional education, lesson effectiveness, knowledge, skills, competence

Ma'lumki, ona tili va adabiyot fani ta'lim tizimining poydevori bo'lib, o'quvchilarni boshqa fanlarni o'zlashtirishi unga bog'liq bo'ladi va ona tili o'qituvchisi zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Bugungi kunda o'quvchi – yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish ustivor vazifaga aylandi. Chunki, til va adabiyot o'qituvchisining eng asosiy va dolzarb vazifalaridan biri ham shu. O'quvchilarda bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishda qiziqishi katta. Boshqa xorijiy tilni o'rganmoqchi bo'lgan kishi avvalo o'z ona tilini mukammal bilishi, e'zozlashi, sevishi, qadrlashi kerak. Shunday ekan, o'z ona tilini mukammal bilgan kishi, boshqa

tillarni o'rganishga kirishishi tabiiy hol. Buning uchun til va adabiyot o'qituvchilari o'z darslarida zamonaviy interfaol metodlarda foydalanib, o'quvchilarning fanga va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishlari lozim.

Shunday ekan, o'z tilini mukammal bilgan kishi boshqa xorijiy tillarni o'rganishga kirishishi tabiiy hol. Buning uchun ona tili va adabiyot o'qituvchilari o'z darslarida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanib, o'quvchilarning fanga va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishi lozim.

Ona tili va adabiyot o'qituvchisining mahorati o'z o'quvchilarini ta'lim jarayoniga faol ravishda jalb qila olish darajasi va ularning mustaqil aqliy va amaliy darslarini to'g'ri tashkil qilishi bilan belgilanadi. Dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini oshirishi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yanada mustahkamlashi hech kimga sir emas. O'qitish jarayonida noan'anaviy ta'lim usullaridan: "Aqliy hujum", "Debat", "Tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul", "Klaster", "Muammoli vaziyat", "Idrok xaritasi", "Mazmun va mohiyat", "Izohli test" usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda o'quv materiallarini bayon qilish emas, balki, o'quvchilarning faol ijodiy ishlashini tashkil qila olish muhimdir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bolalar ko'proq eshitganidan ko'ra, ko'rganiga ishonishadi. Demak, biz o'qituvchilarning vazifamiz faqat aytib o'tish yoki ta'kidlash emas, balki aytganlarimizni ko'rsatib ham berishimiz lozim. O'z tajribamdan kelib chiqib, ona tili va adabiyot darslarida quyidagi interfaol usullardan foydalanishni tavsiya etaman:

"Izohli test" usuli. Bu usuldan ona tili va adabiyot fanlarining har ikkisida, qolaversa, boshqa fanlarda ham o'tgan mavzuni so'rash va yangi mavzuni mustahkamlash uchun foydalanish mumkin. Bu usulni qo'llaganda darsdagi har bir o'quvchining darsda faol ishtirok etishiga erishiladi. Bunda beshtadan o'ntagacha bo'lgan test savolini qo'llash maqsadga muvofiq.

O'qituvchi testda ikkita bir – biriga yaqin javoblardan foydalanadi. Javoblarning biri xato, biri to'g'ri. O'quvchilar A javob uchun sariq rangli, B javob uchun yashil rangli tarqatmalar ko'rsatishadi va tanlangan javobini izohlashadi. Har bir test savoliga berilgan

javoblar o'sha paytning o'zida umumlashtirilib, to'g'ri javob bergan o'quvchilar rag'batlantirib boriladi.

“Izohli test” usulini qo'llashdan kutiladigan natija:

- o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma, malakalari darsning o'zidayoq aniqlanadi;
- har bir o'quvchining bilimini aniqlash imkoniyati tug'iladi;
- o'quvchilar o'z fikrini mustaqil izohlashga o'rganadi.

“Zukkolar bahsi” usuli. Bu usulni ona tili fanida qo'llash mumkin. O'qituvchi guruhlariga so'zlar zanjirini beradi. O'quvchilar ulardan foydalanib eng mantiqli, mukammal, xatosiz, mazmundor gap tuza olishi kerak.

1-guruhga bahor, gulzor, Navro'z, lolaqizg'aldoq, yalpiz so'zlari;

2- guruhga ona, mo'tabar, ulug', mehridaryo, beshik, alla, mehr, sehr, inson so'zlari;

3-guruhga bola, sog'lom, mukammal, baquvvat, qudratli, barkamol, kelajak, vatan ravnaqi, oila, el – yurt kuch – qudrat so'zlari beriladi.

Bu usulni qo'llashda mavzuga oid atamalardan foydalanish ham mumkin. eng mazmundor va 57 Декабрь 2020 7-қисм Тошкент xatosiz yozilgan gaplar mualliflari aniqlanadi.

“zukkolar bahsi” usulini qo'llashdan kutiladigan natija:

- o'quvchilarni mantiqan va mazmunan boy gaplar tuzishga o'rgatadi;
- o'quvchilar uslubiy xatolarga yo'l qo'ymaslikka harakat qila boshlaydi;
- o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stiradi.

xulosa qilib aytganda, bunday interfaol usullar o'quvchilarning savodxon bo'lishiga, DTS talablariga qo'yilgan bilim va ko'nikmalarni oson va qiziqarli egallashlarida muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarning ona tili va adabiyot bo'lgan qiziqishlari va dars samaradorligi ham ortishiga sabab bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda noan'anaviy ta'lim usullaridan foydalanish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ona tili va adabiyot fanlarida bu usullar darslarni jonlantirish, o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish, mustaqil fikr bildirish ko'nikmasini rivojlantirish, tilga va adabiy merosga bo'lgan qiziqishni oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Noan'anaviy ta'lim metodlari – interaktiv mashg'ulotlar, munozarali darslar, rolli o'yinlar, klaster, “aqliy hujum”, loyiha asosidagi o'qitish kabi shakllar orqali darslarni o'quvchilarning faol ishtirokida tashkil etish imkonini beradi. Bu esa, bir tomondan, o'qituvchining yaratgan sharoitida har bir o'quvchining individual fikrlashini rivojlantirsa, ikkinchi tomondan, ularning ijtimoiy faolligini ham oshiradi.

Shu bois, ona tili va adabiyot darslarida an'anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va noan'anaviy metodlardan oqilona foydalanish nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarni har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol shaxslar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu yo'nalishda o'qituvchining ijodkorligi, yangilikka intilishi, metodik mahorati hal qiluvchi o'rin tutadi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida yuz berayotgan islohotlar, yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy metodlarning tatbiq etilishi o'qituvchidan yangicha yondashuvni, darslarni tashkil etishda ijodkorlik va yangilikka intilishni talab qilmoqda. Xususan, ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda noan'anaviy ta'lim usullaridan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqotga kirisha olish, tahliliy yondasha olish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Ona tili fanida esa, “debate”, “savol-javob”, “blits-so'rov”, interaktiv testlar, muammoli vaziyatlarni hal qilishga qaratilgan topshiriqlar orqali tilning nazariy jihatlarini hayotiy misollar bilan bog'lab o'rgatiladi. Bu esa o'quvchilarning nafaqat bilimni chuqurlashtiradi, balki ularni nutq madaniyati, muloqot etikasi, fikrni aniq va lo'nda ifodalashga ham o'rgatadi.

Shuningdek, noan'anaviy ta'lim o'quvchini faqatgina tinglovchi emas, balki faol o'rganuvchi, izlanuvchi, fikrlovchi va ijod qiluvchi subyekt sifatida shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida teng hamkorlik va sog'lom muloqot muhitini yaratadi. Bunday darslar o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi, o'zlashtirish darajasini oshiradi, darsga qiziqmagan o'quvchilarni ham faol ishtirokchi qilib tarbiyalaydi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot darslarini samarali tashkil etishda noan'anaviy ta'lim usullaridan oqilona va maqsadli foydalanish hozirgi zamon ta'limining eng dolzarb talablaridan biridir. Ushbu usullar orqali o'quvchilarning bilim darajasi, tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyati, ijodkorlik salohiyati hamda nutq madaniyati yuksaladi. Eng asosiysi, noan'anaviy metodlar o'qituvchining o'z pedagogik mahoratini namoyon etishiga, o'quvchini esa faol, ijodiy va mustaqil shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu boisdan, zamonaviy ta'lim jarayonida bu metodlarga ustuvorlik berilishi, ular asosida darslarning tashkil etilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mengliyev B., xoliyorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T-2013 yil.
2. Ro'ziyeva D.I. Usmonboyeva M.H. xoliqova z. Interfaol metodlarning qo'llanilishi va mohiyati. Metodik qo'llanma. T-2013 yil.